



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th March, 2026

Website: <https://econferencia.com>

TA'LIM JARAYONIDA MILLIY QADRIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Sayyora Eshbekova To'rabek qizi

Sirdaryo viloyati Guliston tumani 1-umumiy
o'rta ta'lim maktabi O'zbek tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur ishda ta'lim jarayonida qadriyatlarni rivojlantirishning pedagogik ahamiyati yoritiladi. Unda o'quvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish, ularni tarbiyaviy jarayonga integratsiya qilish hamda shaxs kamolotidagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, ta'lim jarayonida qadriyatlarni rivojlantirish orqali o'quvchilarda ma'naviy yetuklik, ijtimoiy mas'uliyat, hurmat, bag'rikenglik kabi fazilatlarni shakllantirish masalalari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari ta'lim muassasalarida samarali pedagogik usul va yondashuvlarni qo'llash orqali o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini rivojlantirish muhimligini ko'rsatadi.

Аннотация

В данной работе рассматривается педагогическое значение развития ценностей в образовательном процессе. Анализируется роль формирования у учащихся национальных и общечеловеческих ценностей, а также их интеграция в воспитательный и образовательный процесс и значение в развитии личности. Кроме того, освещаются вопросы формирования у обучающихся таких качеств, как духовная зрелость, социальная ответственность, уважение и толерантность посредством развития ценностей в процессе обучения. Результаты исследования показывают важность применения эффективных педагогических методов и подходов в



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th March, 2026

Website: <https://econferencia.com>

образовательных учреждениях для развития духовно-нравственного воспитания учащихся.

Annotation

This work highlights the pedagogical significance of developing values in the educational process. It analyzes the role of forming national and universal values in students, their integration into the educational and upbringing process, and their importance in personal development. The study also examines the development of qualities such as spiritual maturity, social responsibility, respect, and tolerance in students through value-based education. The results of the research emphasize the importance of applying effective pedagogical methods and approaches in educational institutions to enhance students' moral and spiritual development.

Kalit soʻzlar: milliy qadriyatlar, taʼlim-tarbiya, maʼnaviyat, yoshlar tarbiyasi, pedagogik jarayon, vatanparvarlik.

Ключевые слова: национальные ценности, образование и воспитание, духовность, воспитание молодежи, педагогический процесс, патриотизм

Keywords: national values, education and upbringing, spirituality, youth education, pedagogical process, patriotism

"Qadriyatlar – insonning ichki dunyosining eng muhim oʻlchovi."

(Lev Tolstoy)

Hozirgi globallashuv davrida har bir xalq oʻzining milliy qadriyatlarini asrab-avaylash va kelajak avlodga yetkazish masalasiga alohida eʼtibor qaratmoqda. Milliy qadriyatlar xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlar, anʼanalari va maʼnaviy



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th March, 2026

Website: <https://econferencia.com>

merosini o‘zida mujassam etadi. Shu sababli yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash ta‘lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta‘lim va qadriyatlar, yoshlar tarbiyasi va ma‘naviyat haqida bir nechta rasmiy nutqlarida yoshlar tarbiyasi va ta‘limning davlat uchun ahamiyati haqida e‘tirof etganlar. Yoshlar tarbiyasini sifatli ta‘lim va tarbiya bilan chambarchas bog‘lab, bu – davlatning eng muhim vazifasi ekanini aytganlar: “Sifatli ta‘lim va to‘g‘ri tarbiya yoshlar uchun zamonaviy kasb va chet tillarni o‘rgatish bilan birga ularni hayotda munosib o‘rnini topishiga yordam beradi”, deb ta‘kidlagan. Tarix va milliy qadriyatlarni ham muhim ta‘lim vositasi sifatida ko‘rib, yoshlarni milliy tarix va qadriyatlar ruhida tarbiyalash zarurligini ta‘kidlagan: “Eng buyuk maktab – bu tarixning o‘zi. Bizning yoshlarga tarixni yaxshi o‘rgatish, ajdodlarimizdan ibrat olish imkonini berish juda muhimdir.”

Shuningdek, inson qadr-qimmatini va adolat kabi yuqori qadriyatlar ta‘lim orqali shakllanishi kerakligini alohida qayd etgan: “Ta‘lim va milliylik tinimsiz o‘zgarmoqda, jahonda inson qadriga hurmat va adolat eng oliy qadriyat bo‘lib qolmoqda”, deb bayon qilganlar.

Milliy qadriyatlar jamiyat taraqqiyotida muhim o‘rin tutib, shaxsning ma‘naviy kamolotini ta‘minlaydi. Ayniqsa, o‘quvchilarda vatanparvarlik, hurmat, mehr-oqibat, insonparvarlik kabi fazilatlarni shakllantirishda milliy qadriyatlarning ahamiyati katta. Bu jarayonda oila, ta‘lim muassasalari va jamiyatning o‘zaro hamkorligi muhim omil hisoblanadi.

Ta‘lim jarayonida milliy qadriyatlarni rivojlantirish o‘qituvchining pedagogik mahoratiga ham bog‘liq. O‘qituvchi dars jarayonida milliy an‘analar, urf-odatlar, tarixiy shaxslar va madaniy meros haqida ma‘lumot berish orqali o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usini shakllantiradi. Shu bilan birga, tarbiyaviy



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th March, 2026

Website: <https://econferencia.com>

tadbirlar, suhbatlar, ma'naviy-ma'rifiy uchrashuvlar va milliy bayramlar orqali ham o'quvchilarda qadriyatlarga hurmat ruhini kuchaytirish mumkin.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanish ham milliy qadriyatlarni o'rgatishda samarali hisoblanadi. Guruhli muhokamalar, rolli o'yinlar, loyiha ishlari va taqdimotlar o'quvchilarning faolligini oshiradi hamda ularni mustaqil fikrlashga undaydi. Natijada o'quvchilar nafaqat nazariy bilimga ega bo'ladilar, balki milliy qadriyatlarning mazmun-mohiyatini ham chuqur anglay boshlaydilar.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim jarayonida milliy qadriyatlarni rivojlantirish yosh avlodni ma'naviy barkamol, vatanparvar va jamiyat oldidagi mas'uliyatini his qiladigan shaxs sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli pedagoglar ta'lim jarayonida milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, 2008.
2. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent, 2021.
3. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Toshkent, 2019.
4. Ma'naviyat asoslari. Toshkent, 2020.